

JISMONIY
TARBIYA
FAOLIYAT
ISHLANMALARI
YOZ DAVRI

O'RTA GURUH

“Tasdiqlayman”
_____ - sonli MTT
direktori _____

YOZGI SOG‘IM HATIRISH DAVRI O‘RTA GURUHI JISMONIY TARBIYA YO‘PILISH REJASI

№	Oy mavzusi	Hafta mavzusi	Oy mavzusi	Soati	Oʻrta guruh	Vaqti	Kuni	Izoh
1.	Iyun Baxtli bolalik	1-hafta Baxtli bolalik	Qish mavzusi maydonchasida	20 daqiqa	“Biz quvnoq bolalarmiz” oʻyini			
					“Kim birinchi”			
		2-hafta Qushlar bizning doʻstimiz	Sport maydonchasida	20 daqiqa	“Gʻozlar va oqqushlar” oʻyini			
					«Quvlashmashoq» oʻyini			
		3-hafta Bogʻchamizga sayr qilamiz	Sport maydonchasida	20 daqiqa	“Turnalar ” oʻyini			
2.	Iyul Quvnoq yoz	4-hafta Ertak qaxramonlari mehmonda	Sport maydonchasida	20 daqiqa	“Bogʻ doʻstini olish” oʻyini			
					“Boʻsoq” oʻyini			
		1-hafta Yozgi oʻyinlar	Sport maydonchasida	20 daqiqa	“Nasib” oʻyini			
					“Kosalar” oʻyini			
		2-hafta Quvnoq estafetalar	Sport maydonchasida	20 daqiqa	“Uchinda qichak” oʻyini			
					“Qoʻlingiz bogʻliq” oʻyini			
		3-hafta Ertaklar yaxshilikka yetaklar	Sport maydonchasida	20 daqiqa	“Koʻz bogʻliq” oʻyini			
					“Oqterak, koʻkterak” oʻyini			
		4-hafta Suv qiroli mehmonda	Sport maydonchasida	20 daqiqa	“Arqon tashlash” oʻyini			

3.	Avgust Quvnoq va sogʻlom bolalar	1-hafta Savzavo mevalar	Sport maydonchasida	20 daqqa	“Kim tez oʻraydi” oʻyini			
			Sport maydonchasida	20 daqqa	“Kurash” oʻyini			
		2-hafta Kattalarga quloq sol	Sport maydonchasida	20 daqqa	“Besh tosh” oʻyini			
			Sport maydonchasida	20 daqqa	“Oʻt oʻchiruvchilar” oʻyini			
		3-hafta Oʻynalar shaharchasi	Sport maydonchasida	20 daqqa	“Oʻz uyingni top” oʻyini			
			Sport maydonchasida	20 daqqa	“Tasmasi tasma tera oladi” oʻyini			
		4-hafta Zavqli yoz	Sport maydonchasida	20 daqqa	“Sogʻlom boʻlib ol” oʻyini			
			Sport maydonchasi	20 daqqa	“Kim tez oʻraydi” oʻyini			

Iyun oyi

Oy mavzusi: Baxtli bolalik

1-Hafta mavzusi: Baxtli bolalik

Mavzu: “Biz quvnoq bolalarmiz” o‘yini va “Kim birinchi” o‘yini.

O‘tish joyi: sport maydonchasi

Maqsad:

ta’limiy: “Biz quvnoq bolalarmiz” o‘yini va “Kim birinchi” o‘yinlar qoidasini o‘rgatish, bolalarga yurish va yugurishni o‘rgatishda davom etish. Ular bilan buyumlar oralab yurish va yugurishni takrorlash; Oyoq uchida yurish, 1,5 daqiqagacha yugurish va sekin yurib, nafas mashqlariga o‘tish.

tarbiyaviy: jismoniy faoliyatlar va harakatli o‘yinlarga bo‘lgan qiziqishini oshirish, atrof olam bilan tanishtirish, barmoq motorikasi va jismoniy harakatlarni bajarishga o‘rgatish.

rivojlantiruvchi: bolalarni jismoniy tafakkurini rivojlantirish, idroki va hissiyotlarini tarbiyalash, yurish, yugurish va jismoniy mashqlarni bajarishni odatlantirish, jismoniy faoliyatlarini rivojlantirish.

Kerakli jihozlar: mavzuga oid sport anjomlari va ko‘rgazmalar.

Faoliyat tashkilotchilik: bolalarga saflanishni tushuntiradi, so‘ngra bolalarga o‘z ishoralarini ko‘rsatishning ketidan bir qator bo‘lib tizilish va boshlovchining ketidan yurishni tushuntiradi. Oyoq uchida yurish, so‘ngra qo‘llar bel xolatida yurish, yugurish mashqlari bajariladi. Oyoqlar yelka kengligida turish, qo‘llar past -2-3 oyoq uchida turgan holda yuqoriga ko‘tarish qo‘llarga qarash-nafas olish.

“Biz quvnoq bolalarmiz” harakatli o‘yini

O‘yinga tayyorlanish. Bolalar maydonning bir tomonida chiziq orqasida turadilar. Maydonning qarama qarama tomonida ikkinchi chiziq o‘tkaziladi. Maydonning o‘rtasida tutuvchi turadi.

O‘yin tavsif. Tarbiyachini ishora qiluvchi bolalar boshlovchilar xor bo‘lib mana bunday deydilar.

“Bolalarimiz ko‘p

quvnoq,

Chopishga chanqoq –

chanqoq

Qani, quvlab eting-chi,

Bir, ikki, uch - tuting-

chi!”

“Tutib ol!” so‘zi

yangrashi bilan bolalar

maydonning ikkinchi

tomoniga yugurib

o‘tadilar, tutuvchi

ularni ushlab oladi. Tutuvchi kimni ushlab olishga ulgursa, u tutilgan hisoblanadi va chiziqdan tashqariga chiqadi hamda yugurib o‘tganda bir marta ishtirok etmaydi.

Yugurib o‘tish ikki marta takrorlangach boshqa tutuvchi tayinlanadi. O‘yin 3-4 marta takrorlanadi.



“Kim birinchi”

O‘YINNING MAQSADI. Bolalarning intizomlilikini, kuzatuvchanligini va to‘g‘ri, qoida bo‘yicha harakat qilishlarini tarbiyalash.

O‘ynovchilar maydonchani (xonani) bir tomonida qator bo‘lib turishadi.

Ikkinchi tomonida chegaraning oxirini ko‘rsatadigan bayroqcha qo‘yiladi.

Tarbiyachining komandasi bilan qatnashchilar bayroq tomon yugurishadi. Kim birinchi bo‘lib etib kelsa, shu bola yutgan hisoblanadi.

KO‘RSATMALAR. Maydonchani bir boshidan to bayroqqa bo‘lgan masofa 15-20 metr keladi. Tarbiyachi og‘zaki: “Chopiqalar”, deyishi yoki bayroqcha bilan silkitib, chapak chiqib komanda berishi mumkin. Umuman, tushunarli qilib signal berish yo‘lini o‘zining o‘zi hal qilishi mumkin. Tarbiyachi bolalar chopiqchilikni qatnashmasliklarini kuzatib turishi kerak.

Faoliyat. Bolalar faoliyatda aktiv qatnashgan bolalarni shirin so‘zlar bilan rag‘batlantirib, ularni muvaffaqiyatli yakunlaymiz.



Iyun oyi

Oy mavzusi: Baxtli bolalik

2-Hafta mavzusi: Qushlar bizning do'stimiz

Mavzu: "G'ozlar va oqqushlar" o'yini va "Quvlashmachoq" o'yini

O'tish joyi: sport maydonchasi

Maqsad:

ta'limiy: "G'ozlar va oqqushlar" o'yini va "Quvlashmachoq" o'yinlar qoidasini o'rgatish, bolalarga yurish va yugurishni o'rgatishda davom etish. Ular bilan buyumlar oralab yurish va yugurishni takrorlash; Oyoq uchida yurish, 1,5 daqiqagacha yugurish va sekin yurib, nafas mashqlariga o'tish.

tarbiyaviy: jismoniy faoliyatlar va harakatli o'yinlarga bo'lgan qiziqishini oshirish, atrof olam bilan tanishtirish, barmoq motorikasi va jismoniy harakatlarni bajarishga o'rgatish.

rivojlantiruvchi: bolalarni jismoniy tafakkurini rivojlantirish, idroki va hissiyotlarini tarbiyalash, yurish, yugurish va jismononiy mashqlarni bajarishni odatlantirish, jismoniy faoliyatlarini rivojlantirish.

Kerakli jihoz: mavzuga oid sport anjomlari va ko'rgazmalar.

Faoliyatga tayyorgarlik: bolalarga saflanishni tushuntiradi, so'ngra bolalarga o'z ishorasiga ko'ra bir-birlarining ketidan bir qator bo'lib tizilish va boshlovchining ketidan zal bo'ylab yurishni tushuntiradi. Oyoq uchida yurish, so'ngra qo'llar bel xolatida yurish va yugurish mashqlari bajariladi. Oyoqlar yelka kengligida turish, qo'llar pastda 1-2-qo'llarni oyoq uchida turgan holda yuqoriga ko'tarish qo'llarga qarash-nafas olish.

«G'ozlar-g'ozlar» o'yini

Maqsad: Bolalarni nutqini rivojlantirish, jismonan ravishda chaqqonlikka va epchillikka o'rgatish.

Kerakli jihozlar: o'yin maydonchasi va g'ozlar, bo'rilar niqoblari

O'yinning borishi: O'yin 15-20 ta bolalar bilan 2 ta guruxga bo'linadilar. Oraliq masofa 10-11 m olib ikki tomonga qo'l ushlab turadilar. Guruhlardan ikkitasi bo'ri rolini bajarishi uchun ajratiladi. Bo'rilar oraliqning ikki tomonida turadi. Guruhlarning birinchisi ona g'ozlar, ikkinchisi g'ozchalar bo'ladi. Ona g'ozlar qarama-qarshi tomonga qarab:

«G'ozlar-g'ozlar»

Uchib kelinglar- deydilar,

G'ozchalar: Ucholmaymiz g'o'rmiz

Ona g'ozlar: Nimadan

G'ozchalar: Bo'ridan

Ona yuzlar: Bo'ri qayda

G'ozchalar: Ola tog'da

Ona g'ozlar: Qanday bo'lsa ham uchib-uchib kelinglar

Bu chaqiriqni eshitgan g'ozlar ona g'ozlar tomon uchadi shu vaqt bo'rilar g'ozlarni tutishga harakat qiladi. Qaysi g'oz ona g'ozlar tomon uchib o'tsa g'olib, ucholmay qo'lga tushganlar mag'lub sanaladi. O'yin davomida mag'lublar bo'ri rolini bajaradi.

“Quvlashmachoq” o‘yini

Maqsad: Bolalarni chaqqon harakat qilishga va tezlik bilan yugurishga, masofani chamalashga o‘rgatish

Kerakli jihozlar: o‘yin maydoncha

O‘yinning borishi: o‘yinchilar juft-juft bo‘lib qatorga saflanadilar, qator oldida ikki uch qo‘l bilan tutuvchi qilib saylangan bola oldinga qarab turadi. Bolalar bir ikki uch qo‘l bilan tutuvchi qilib keyin bolalar qator oxiridan boshlab qo‘llarini qo‘yib yuboradilar va chaqqon ketadilar. Biri chap tomondan, ikkinchisi o‘ng tomondan chaqqon ketadi. Ular qator oldiga yugurib chiqadilar va yana qo‘l ushlab tutuvchi qilib o‘z qatoriga o‘tib olishga harakat qiladi. Tutuvchi bolalar qo‘l ushlab olishga harakat qiladi. Agar u buning uddasidan chiqsa chaqqon ketadi va bilan juft bo‘lib olib qator oldiga borib turadi. Sheriksiz qolgan bola tutuvchi bo‘ladi. Agar tutuvchi bola xech kimni tuta olmasa yana bir marta harakat qiladi. O‘yin barcha bolalar yugurib chiqqandan so‘ng tugaydi. O‘yin yangi tutuvchi saylanadi.

Faoliyatni yakunlash: Faoliyatni yakunlash uchun qatnashgan bolalarni shirin so‘zlar bilan rag‘batlantirib, faoliyatni yakunlaymiz.



veb-saytimiz: Zokirjon.com

**Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun
kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.**

Zokirjon Admin bilan

**+99891-328-88-38 nomerga telegramdan
yozishingiz yoki telegramdan jek567 izlab
telegramdan yozishingiz so'raladi.**

**Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida
javob beriladi.**

**O'rta guruhlariga yoz davri jismoniy tarbiya
faoliyat ishlanmalarini to'liq holda olish
uchun telegramdan yozing.**




Narxi: 20 ming so'm

Telegram kanalimiz:

@maktabgacha_tt

To'lov uchun: HUMO 9860230104973329

Plastik egasi Nabiye Zokirjon



DIQQAT!!!

**Bu hujjatni hech kimga tarqatmaslik
sharti bilan olishingiz mumkin.**

Sizga bu OMONAT qilib beriladi.

To'liq holda olganingizdan so'ng:

Faqat o'zingiz uchun foydalaning.

**Hech kimga bermang hattoki eng yaqin
insoningizga ham.**

Internet veb-saytlarga joylamang.

**Telegram orqali kanal va gruppalariga
tarqatmang.**

**OMONATGA HIYONAT
QILMANG.**